

**ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI**

*Saydivaliyeva Barno Saidbaxromovna  
Yuldasheva Mamura Baxtiyarovna  
Toshkent Davlat Transport Universiteti  
“Chet Tillari” Kafedrasi O’qituvchilari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buyuk pedagog, olim Abdulla Avloniy haqida so’z borar ekan uni o’zbek matbuotining asoschisi sifatida shuhrat qozongan allomalardan biri ekanligini hamda pedagog sifatida maktab va maorif sohasida ulkan yutuqlarga erishganligini alohida ta’kidlab o’tish lozim deb o’ylayman. Taniqli ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shgan, o’z asarlarida o’zbek xalqining eng yaxshi an’analarini, ta’lim- tarbiyaga oid muhim hayotiy masalalarni aks ettirgan, o’zbek xalqining san’ati, adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta’limi ishlarini yo’lga qo’yishda katta xizmatlar qilganligi keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Ta’lim- tarbiya, xalq, zamonaviy metodlar, pedagogik fikr, gazeta, usullar,

### **KIRISH**

Buyuk pedagog, olim Abdulla Avloniy haqida so’z borar ekan uni o’zbek matbuotining asoschisi sifatida shuhrat qozongan allomalardan biri ekanligini hamda pedagog sifatida maktab va maorif sohasida ulkan yutuqlarga erishganligini alohida ta’kidlab o’tish lozim deb o’ylayman. Taniqli ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shgan, o’z asarlarida o’zbek xalqining eng yaxshi an’analarini, ta’lim- tarbiyaga oid muhim hayotiy masalalarni aks ettirgan, o’zbek xalqining san’ati, adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta’limi ishlarini yo’lga qo’yishda katta xizmatlar qilgan adib hisoblanadi.

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand - to’quvchi oilasida dunyoga kelgan. Ota-onasi savodli kishilar bo’lgan. Abdulla Avloniy eski usul maktabini tamomlagandan keyin 12 yoshida madrasaga o’qishga kiradi. O’ta iqtidorli bo’lgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she’rlar yoza boshlaydi. Dastlabki she’rlarida va “Hijron” degan maqolasida xalqni yangi usul maktablarida o’qib-o’rganishga targ’ib qiladi. Abdulla Avloniy 1907 yilda “Shuhrat”, “Osiyo” nomli yangi gazetalar chiqara boshlaydi, lekin Chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoptirib qo’yadi. Abdulla Avloniy keyinroq “Sadoyi Turkiston”, “Turon” gazetalarida va “Kasabachilik harakati” nomli jurnalda muharrir bo’lib ishlaydi. Shundan so’ng, u o’zbek matbuotining zabardast vakili, o’zbek matbuotining asoschilaridan biri sifatida taniladi.

Abdulla Avloniy xalq orasida ilg'or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma'rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli g'oyat katta ekanligini yaxshi bilar edi. Shu sababli ham Abdulla Avloniy 1907 yili "Shuhrat", "Osiyo" nomli gazetalar chiqarib, unga muharrirlik qiladi. Gazetaning birinchi sonida matbuotning roli, gazetaning vazifasi haqida fikr yuritib, "Matbuot har insonga o'z holini ko'rsatuvchi, ahvol olamdan xabar beruvchi, qorong'i kunlarni yorituvchi, xalq orasida ilm, ittifoq, himmat g'oyalarini yoyuvchidir" deb, baliqning suvsiz yashamog'i mumkin bo'limgani kabi insonning ham ilmsiz yashamog'i mumkin emasligini uqtiradi.

XX asr boshlarida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o'rin egalladi va butun faoliyati davrida o'z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma'naviyatli bo'lishiga alohida e'tibor beradi.

Abdulla Avloniy o'zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913 yilda "Turon" nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professional teatrga aylanishi uchun katta to'siqlar bor edi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati esa xalqning ijtimoiy ongini uyg'onishiga yordam ko'rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga nisbatan ana shunday salbiy munosabatda bo'lingan bir paytda Avloniyning teatr truppasini tashkil qilishi va ijtimoiy mazmundagi pyessalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo'lidagi zo'r jasorati edi. Teatrshunos M.Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi:

Avloniy truppa uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Ikki muhabbat", "Portug'oliya inqilobi" kabi drammalar yozdi, "Qotili Karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor oilasi", "Badbaxt kelin", "Jaholat", "O'liklar" kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi<sup>18</sup>. Ammo bu asarlar nashr qilinmadni.

Abdulla Avloniy 1917 yil to'ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan edi. Abdulla Avloniy ilg'or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan "Usuli jadid", ya'ni yangicha ilg'or usuldagi maktablar ochdi va bu maktablarda xalq bolalarini o'qitdi. Abdulla Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usul maktablarini ochdi. Abdulla Avloniy "Usuli jadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yohud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Ikkinchi muallim" (1915), "Maktab gulistoni" (1917) kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug'lab, o'z xalqini ilmli, madaniyatli bo'lishga chaqiradi. XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning "Birinchi muallim" i ham o'ziga xos o'ringa ega; "Birinchi muallim" 1917

yil to'ntarishiga qadar 4 martta nashr qilingan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" iga suyanadi. Avloniyning "Ikkinchchi muallim" kitobi "Birinchi muallim" kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobini shartli ravishda- alifbe desak, ikkinchi kitobini esa xrestomatiya desak bo'ladi. Avloniy maktabni insonning najot yo'li, hayotning gulshani , kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch-deya maqtaydi.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida "Turkiy guliston yoxud axloq" asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga egadir. Ushbu asar axloqiy, ta'limiy va tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni "yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi" bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi.

"Tarbiya – "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur", - deydi Avloniy. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdir. Zeroki, «Hassinu axloqiko'm» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg'a amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasи tarbiyadur. Axloqimizning binosini go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur,

ba'zilar «tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgarmas», – demishlar. Lekin bu so'z to'g'ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqga, albatta, ta'siri bo'ladur. Oramizda masal borki, «sut ila kirgan, jon ila chiqar», mana bu so'z to'g'ridur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Beshikdan to mozorga borguncha ilm o'rgan», demishlar. Bu hadisi sharifning ma'nosи bizlarga dalildur.<sup>19</sup>

O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy ilk bor pedagogikaga "Pedagogiya", ya'ni "bola tarbiyasining fanidir" deya ta'rif bergan. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi: 1. "Tarbiyaning zamoni". 2. "Badan tarbiyasi". 3. "Fikr tarbiyasi". 4. "Axloq tarbiyasi" haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi. Avloniy "Tarbiyaning zamoni" bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-on, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi. "Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidur" deb uqtiradi - Avloniy<sup>20</sup>. Avloniy ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ham ta'kidlaydi: "Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrlmaydurgan, birining vujudu biriga boylangan jon ila tan kabidur"- deydi<sup>21</sup>.

Ilm deb o'qimoq, yozmoqni yaxshi bilmoq, har bir kerakli narsalarni bilishga aytilur. Ilm- dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatadi. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qiladi. Savobni- gunohdan, halolni-xaromdan, tozani-murdordan ayirib beradi, bizni to'g'ri yo'limizga rahnamolik qilib, dunyo va oxiratimizda mas'ud bo'lishimizga sababchi bo'ladi. Ilmsiz inson – mevasiz daraxt kabidir. Ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug'iga, yordostlariga, din va millatiga foyda keltirish bir tarafda tursin, o'z ustida turgan toatibodatini ham loyig'icha bajara olmaydi. Ilmning foydasi shu qadar ko'pki, ta'rif qilgan sari adog'iga yetib bo'lmaydi. Ilm insonlarni jaholat qorong'uligidan qutqaradi.

Ilm-ma'daniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga olib chiqib, buzuq ishlardan qaytaradi. Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir. Shariatimizda qaysiki ilmga muhtoj bo'lsak, shuni bilmoq bizga farzdir, - deydi Avloniy22.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Avloniy birinchilardan bo'lib xalqni ilmli, ma'rifatli, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash uchun harakat qildi. Darsliklar yozdi va ushbu darsliklarini maktablarda o'qitdi, publitsistik faoliyatni ham amalga oshirdi, xalqni ilmli bo'lishi uchun teatr truppalarini ham tashkil qildi, ushbu teatr spektakllari uchun drammalarni yozdi, ularda zamonasidagi jaholat, bid'at, bilimsizlikning fojiali oqibatlarini, qo'pol va yaramas urf-odatlarni fosh etdi, hattoki ayrim rollarni ijro etishda o'zi ham qatnashdi. Ta'lim dargohlarida o'qitiladigan fanlarning ko'لامи va sifatiga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, birinchilardan bo'lib maktablarda geografiya, fizika, kimyo, xandasa fanlarini o'qitilishini yo'lga qo'ydi. Ta'limni real turmush bilan bog'lashga intildi. Bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi. Ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishga alohida e'tibor berdi. Shoir Afg'onistonda elchi bo'lidi, turli o'quv yurtlarida dars berdi. Avloniy o'z asarlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qildi va kishilarni bilimga, ma'rifatga chaqirdi. Shoir o'z she'rlarida xoh urf-odatlarga qarshi qaratilgan bo'ladimi, xoh muhabbat yoki maktab-maorif haqida bo'ladimi, hamma-hammasida inson va uning axloqiy go'zalligini, ma'naviy boyligini kuyladi. Jumladan, o'zining "O'z mamlakatimizda" nomli she'rida maishat uchun pul-boylikni mo'l-ko'l isrof etgan, ammo bola tarbiyasi uchun sariq chaqani ravo ko'rmagan xasislarni "Ilm uchun pulni ko'zlari qiymas" deya qoralaydi. Avloniy umrining so'ngigacha xalqni, millatni ilmli, savodli qilishga intildi. Abdulla Avloniy 1934 yil 24 avgustda 56 yoshida vafot etgan.

### **References:**

1. Bakhtiyorovna, Y. M., Shukhratovna, S. I., Izatullaevna, I. I., Muydinjanovna, Y. D., Yurevna, F. L., & Mamadjanovna, K. M. (2022). INDEPENDENT EXTRACURRICULAR WORK OF STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER

EDUCATION INSTITUTIONS IN THE CONDITIONS OF A CREDIT MODULAR SYSTEM. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3302-3305.

2. Mamura Bakhtiyorovna Yuldasheva (2022). THE STYLISTIC SIGNIFICANCE OF TRANSLATING PORTRAITS UZBEK NOVELS INTO ENGLISH. *Academic research in educational sciences*, 3 (2), 224-228. doi: 10.24412/2181-1385-2022-2-224-228

3. Yuldasheva, M. B. (2020). HISTORY OF THE ENGLISH UZBEK TRANSLATION. *Theoretical & Applied Science*, (3), 11-14.

4. Yuldasheva Ma'Mura Bahtiyorovna (2020). The organization of the mental lexicon. *Наука, образование и культура*, (1 (45)), 44-45.

5. Bakhtiyorovna, Y. M. (2022). RELATION OF COMPARATIVE STYLISTICS WITH TRANSLATION THEORY.

6. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.

<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>

7. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.

8. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.

9. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.

10. Abdurashidovna, A. N. (2022). YANGI O 'ZBEKİSTONDA CHET TİLLARNI OMMALASHTIRISH VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 63-70.

11. Абдурашидова, Нилуфар Абдурашидовна, & Ҳасанов, М. (2022). ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДА ДИН ВА АХЛОҚНИНГ ЎЗАРО МУТАНОСИБЛИГИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 1226-1235.

12. АБДУРАШИДОВА, Н.А. (2022). ПОЧЕМУ СМЕШАННОЕ ОБУЧЕНИЕ: ЗНАЧЕНИЕ ВЛ ДЛЯ УЧИТЕЛЕЙ. *Теоретическая и прикладная наука*, Учредители: Теоретическая и прикладная наука , (2), 136-139.

13. Абдурашидова Н.А. (2021, декабрь). ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ В МАЛЫХ ГРУППАХ. В *Междисциплинарной конференции молодых ученых в области социальных наук* (стр. 20-22).

14. М.Н.Ҳасанов, А.А.Азимбаев, Ҳалилов Ў., & Каримов Б. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ШАХС МАҶНАВИЙ КАМОЛОТИГА ДОИР ҚАРАШЛАРИ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 147–153. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/629>
15. Ramatov, J.S., Umarova, Rozigul , & Khasanov, M.N. (2022). METHOD OF DETERMINATION OF TRANSPORT INTENSITY IN URBAN CONDITIONS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 931-936.
16. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНӢ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУНМОҲИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.
17. Hasanov M., Tuhtaboev E. THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENAISSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS) //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 1-6.
18. М.Н.Ҳасанов, Д.А.Ҳафизов, Р.Х.Тоиров, & Х.Қ.Болтабоев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 137–140. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/627>